

## ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Ismailov Alisher*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi o'quvchilarida kasbiy salohiyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda kasbiy salohiyat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda kasbiy motivatsiya, shaxsiy mas'uliyat, irodaviy barqarorlik va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kabi psixologik omillarning o'rnini yoritilgan. Empirik tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning kasbiy shakllanishini samarali tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy salohiyat, psixologik omillar, kasbiy motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, irodaviy barqarorlik, akademik litsey.

### Kirish

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun malakali, intellektual va psixologik jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi tizimi uchun kadrlar tayyorlashda akademik litsey o'quvchilarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kasbiy salohiyat shaxsning kelajak kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida kasbiy salohiyat va kasbiy rivojlanish muammolari A.N. Leontev, L.S. Vigotskiy, K.K. Platonov, E.A. Klimov, E.F. Zeer kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, kasbiy salohiyat shaxsning ichki psixologik resurslari va ijtimoiy muhit omillari uyg'unligida shakllanadi. Shu bois, mazkur maqolada IIV akademik litseyi o'quvchilarida kasbiy salohiyatni rivojlantirishning psixologik omillari tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar yordamida kasbiy salohiyat tushunchasining psixologik mohiyati va uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Empirik tadqiqotda so'rovnoma, psixologik testlar, kuzatuv va statistik tahlil metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi. Psixodiagnostik metodikalar yordamida o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi, irodaviy barqarorligi va shaxsiy mas'uliyat darajasi aniqlanib, olingan natijalar tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning kasbiy salohiyati bir qator o'zaro bog'liq psixologik omillar ta'sirida rivojlanadi. Ushbu omillar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, kasbiy motivatsiya o'quvchilarning kelajak kasbiga bo'lgan qiziqishi va ongli munosabatini belgilaydi. A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, motiv shaxs faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, kasbiy rivojlanishning muhim manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, kognitiv salohiyat kasbiy bilimlar, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu omil o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Uchinchidan, emotsional-irodaviy barqarorlik stressga chidamlilik, sabr-toqat va o'zini boshqara olish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. K.K. Platonov ta'kidlaganidek, irodaviy sifatlarni shaxsning kasbiy yetukligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

To'rtinchidan, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy o'sishga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Ushbu omil kasbiy salohiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi yuqori bo'lgan o'quvchilarda kasbiy salohiyat darajasi ham yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi asosida psixologik qo'llab-quvvatlash muhimligini tasdiqlaydi.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi o'quvchilarida kasbiy salohiyatni rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali psixologik jarayon bo'lib, u kasbiy motivatsiya, kognitiv salohiyat, emotsional-irodaviy barqarorlik hamda o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kabi omillar uyg'unligida shakllanadi. E.A. Klimovning fikricha, kasbiy shakllanish shaxsning individual imkoniyatlari va kasbiy talablar o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi.

Shu bois, akademik litsey sharoitida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, kasbiy yo'naltiruvchi mashg'ulotlar va individual maslahatlar tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ilmiy xulosalar IIV tizimi uchun raqobatbardosh va psixologik jihatdan tayyor kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975.
2. Выготский Л.С. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1983.
3. Платонов К.К. Структура и развитие личности. – М.: Наука, 1986.
4. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Академия, 2004.
5. Зеер Э.Ф. Психология профессий. – М.: Академический проект, 2006.
6. Абдуллаева Ш.А. Kasbiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2020.